

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**XII RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**IYUN, 2026**

**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**  
<https://konferensiyalar.com>



**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 12-son (26-iyun, 2026-yil).– 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-iyun

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## BO'LAJAK PEDAGOGLAR KASBIY IDENTIKLIGINI SHAKLLANTIRISHDA DEONTOLOGIK YONDASHUV TAMOYILLARI

**Ismailova Nilufar Isroildjanovna**

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti

Email: [nilufarismoilova1975@gmail.com](mailto:nilufarismoilova1975@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy identikligini, ya'ni o'zini o'qituvchi sifatida anglash va kasbiy rollarni qabul qilish jarayonini shakllantirishda deontologik yondashuvning o'rni va pedagogik mexanizmlari tadqiq etilgan. Muallif pedagogik deontologiyaning asosiy tamoyillari - kasbiy burch, ma'suliyat, etika va qadriyatlarni talabalarning ongi va faoliyatiga singdirish yo'llarini tahlil qiladi. Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy "Men-konsepsiyasi"ni rivojlantirish hamda oliy pedagogik ta'lim jarayonida deontologik muhitni yaratish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** bo'lajak pedagog, kasbiy identiklik, pedagogik deontologiya, kasbiy etika, ma'suliyat, kasbiy profil, "Men-konsepsiyasi", pedagogik mahorat.

## PRINCIPLES OF THE DEONTOLOGICAL APPROACH IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY OF FUTURE EDUCATORS

**Ismailova Nilufar Isroildjanovna**

Associate Professor

Namangan State Pedagogical Institute

**Annotation.** This article explores the role and pedagogical mechanisms of the deontological approach in shaping the professional identity of future educators, specifically the process of self-awareness as a teacher and the acceptance of professional roles. The author analyzes methods for integrating the core principles of pedagogical deontology - professional duty, responsibility, ethics, and values - into students' consciousness and activities. The paper puts forward practical recommendations for developing the professional "Self-concept" of future teachers and establishing a deontological environment within higher pedagogical education.

**Keywords:** future educator, professional identity, pedagogical deontology, professional ethics, responsibility, professional profile, "Self-concept", pedagogical mastery.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i12/n34>

Kirish.

Globalashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida pedagogning jamiyatdagi o'rni va funksiyalari o'zgarib, unga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, "kasbiy deontologiya" va "pedagogik identitet" tushunchalarini ilmiy-nazariy jihatdan chuqur tadqiq etish, ularning mohiyatini ochib berish va oliy pedagogik ta'lim amaliyotidagi o'rnini belgilash ushbu dissertatsiya tadqiqotining metodologik asoslaridan birini tashkil etadi. Mazkur tushunchalarni kompleks o'rganish bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishida zaruriy yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi.


Adabiyotlar taxlili.

Deontologiya" atamasi qadimgi yunoncha "deon" (burch, majburiyat) va "logos" (ta'limot) so'zlarining birikmasidan hosil bo'lgan bo'lib, u falsafa va etika fanida burch, majburiyat, axloqiy me'yorlar va qoidalarni o'rganuvchi soha sifatida shakllangan. Bu ta'rif, deontologiyaning umumiy mohiyatini aks ettirib, kasbiy axloq normalarining nazariy asosini

tashkil etadi. Ushbu tushunchaning nazariy asoslari XVIII asr nemis faylasufi Immanuel Kantning axloqiy ta'limotlarida o'z ifodasini topgan bo'lib, u axloqiy harakatlarning mohiyatini majburiyat va burchga asoslangan holda tushuntirgan edi. Kantning burch kategoriyasi deontologik yondashuvning klassik namunasidir va u kasbiy faoliyatdagi axloqiy tanlovlar uchun falsafiy zamin yaratadi. Professional deontologiya esa bu umumiy tushunchaning muayyan kasbiy faoliyat doirasidagi axloqiy me'yorlar, prinsiplar va majburiyatlar tizimini anglatuvchi torroq, amaliy jihati hisoblanadi [1]. Bu deontologiyaning umumiy axloqdan kasbiy axloqqa o'tishini tushuntirib, har bir kasbning o'ziga xos axloqiy qoidalari borligini ko'rsatadi.

Pedagogik deontologiya o'qituvchining kasbiy faoliyatidagi axloqiy burchlari, me'yorlari va tamoyillarini o'rganuvchi mustaqil yo'nalish sifatida shakllangan. O'zbekistonlik olimlardan F.Haydarov pedagogik deontologiyani o'qituvchining jamiyat, o'quvchi, hamkasblar va o'z oldidagi axloqiy majburiyatlari yig'indisi sifatida ta'riflaydi [2]. Haydarovning yondashuvi, o'qituvchi kasbining ijtimoiy ahamiyatini va uning ko'p qirrali axloqiy mas'uliyatini ta'kidlaydi. U pedagogik kasbning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan, inson omili bilan ishlash, shaxsga ta'sir etish va uning kelajagini belgilash kabi jihatlarni inobatga olgan holda shakllanadi. Xorijiy tadqiqotchilardan I.Zeer va E.F.Zeydlarning ta'kidlashicha, pedagogik deontologiya o'qituvchi kasbining o'ziga xosliklarini aks ettiruvchi va kasbiy xulq-atvor me'yorlarini belgilovchi axloqiy kodeks sifatida ko'rib chiqiladi [3]. Bu fikr, pedagogik deontologiyaning amaliy ahamiyatini, ya'ni o'qituvchilarning kundalik faoliyatida qanday axloqiy prinsiplarga amal qilishlari kerakligini belgilashdagi rolini ochib beradi.

Pedagogik deontologiya o'qituvchilik kasbining ma'naviy-axloqiy poydevorini tashkil etib, o'qituvchidan nafaqat bilim berishni, balki har bir talabaga shaxs sifatida yondashishni, jamiyat oldidagi mas'uliyatini his qilishni talab etadi. Uning mohiyati quyidagi asosiy tamoyillarda yaqqol namoyon bo'ladi: **(1- rasm)**



**1-rasm. Pedagogik deontologiya tamoillari**

Talabaga hurmat va insonparvarlik munosabati – Bu tamoyil pedagogik faoliyatning tub mohiyatini belgilab beradi. Har bir talaba – bu shakllanayotgan shaxs bo'lib, uning o'ziga xos qobiliyatlari, ehtiyojlari va orzulari bor. O'qituvchi talabaning shaxsiyatini hurmat qilish, uning fikriga quloq tutish, hissiyotlarini tushunish va uning huquq va erkinliklarini e'tirof etishi shart.

Bu, shuningdek, talabaning har qanday muammosiga (o'quv, shaxsiy, ijtimoiy) tushunish bilan yondashish va imkon qadar yechim topishga yordam berishni anglatadi. Ushbu tamoyil V.A.Suxomlinskiyning qarashlarida o'z aksini topgan bo'lib, "bolaning ruhiy dunyosini ko'ra bilish" san'ati deb ataydi. U "Shaxs tarbiyasi" asarida: "Bolaga yaxshilik qilishdan oldin, uning qalbiga tegmaslik kerak. Bolaning ruhiy dunyosi — bu nozik bir gul, unga qo'pol tegilsa, u so'lib qoladi" [4] deydi. Mazkur fikrdan shuni anglash mumkinki, insonparvarlik tamoyili shunchaki mehribonlik emas, balki pedagogik tavakkalchilikning oldini olishdir. O'qituvchi talabaga nisbatan hurmat ko'rsatmasdan, faqat "bilim berish"ga intilsa, u talabaning ma'naviy dunyosiga ziyon yetkazishi mumkin. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik deontologiyada shaxsga yondashuv "ehtiyotkorlik va odob" doirasida amalga oshirilishi lozim.

Kasbiy burchga sadoqat va mas'uliyat – kasbiy burch bu o'qituvchining jamiyat va davlat oldidagi qarzidir. O'zbekistonlik olim S.Qosimovanning ta'kidlashicha, pedagogik deontologiya normalari o'qituvchidan o'z vazifasini vijdonan bajarishni, o'quv jarayoniga beparvo qaramaslikni talab qiladi. Bu nafaqat dars jadvaliga rioya qilish, balki har bir talabaning bilim sifati uchun ham javobgarlikni anglatadi. S.Qosimova o'zining "Pedagogik deontologiya asoslari" monografiyasida "O'qituvchining kasbiy burchi — bu uning ichki e'tiqodi va tashqi faoliyatining uyg'unligidir. Mas'uliyatni his etmaydigan pedagog kasbiy deontologiya me'yorlariga zid harakat qiladi" [5] deya ta'kidlaydi. Bugungi kunda ta'lim tizimida uchrayotgan ba'zi kamchiliklar (darslarga tayyorgarliksiz kelish, talabalarga befarq munosabat) aynan mas'uliyat hissining zaiflashuvi bilan bog'liq. Muallif fikriga qo'shilgan holda aytish mumkinki, kasbiy burchga sadoqat - bu o'qituvchining o'z kasbiga bo'lgan muhabbati va fidoyiligidir. Agar o'qituvchi o'z ishini sevmasa, faqat maosh uchun ishlasa, deontologik me'yorlar buziladi.

Adolat va xolislik - adolat tamoyili pedagogik baholash va munosabatda muhim o'rin tutadi. Olim I.A.Zimnyaya o'z tadqiqotlarida pedagogik adolatsizlik talabalar psixologiyasida chuqur iz qoldirishini ta'kidlaydi. O'qituvchi talabalarni baholashda qat'iy obyektivlikka amal qilishi, "sevimli talaba" yoki "norozilik bildirilgan talaba" kabi subyektiv guruhlarga ajratmasligi lozim. Zimnyaya I.A. "Pedagogik psixologiya" asarida ko'rsatib o'tganidek: "Adolatning buzilishi - bu pedagogik tizimning eng xavfli kasalligidir. Talaba adolatsizlikni hech qachon kechirmaydi va bu uning o'qituvchiga bo'lgan ishonchini butunlay yo'qotishiga olib keladi" [6]. Demak, adolat tamoyili pedagogik obyektivlikning asosini tashkil etib, talabaning huquqini himoya qilish vositasidir.


Kasbiy sirni saqlash - bu tamoyil o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ishonchning muhim shartidir. Ba'zan talabalar o'zlarining shaxsiy, oilaviy yoki sog'liqqa oid muammolarini faqat o'qituvchiga aytishadi. Bunday ma'lumotlarning tarqalishi axloqiy nuqtai nazardan qabul qilinishi mumkin emas. D.Toshboyeva ta'kidlanganidek: "Kasbiy sirni saqlash — bu huquqiy me'yormi yoki axloqiy me'yormi? U ikkalasining uyg'unligidir. Lekin, asosiysi, bu talabaning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilishdir" [7] Zamonaviy axborot asrida sir saqlash yanada murakkablashmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar orqali talabalar hayotiga aralashish, ularning rasmlarini yoki ma'lumotlarini ruxsatsiz tarqatish deontologik normalarning buzilishidir. Muallifning ta'kidlaganidek, sir saqlash shunchaki ma'lumotni yashirish emas, balki talaba bilan bo'lgan ishonchli aloqani saqlab qolishdir.

Doimiy o'z-o'zini takomillashtirish – o'qituvchilik faoliyati statik emas, u doimo rivojlanishda bo'lishi kerak. UNESCOning ta'lim bo'yicha hisobotlarida "hayot butun umr ta'lim olish" konsepsiyasi e'tirof etilgan. O'qituvchi o'z bilimini yangilamasdan, talabalarga sifatli

ta'lim bera olmaydi. B.Yo'ldoshev. O'z tadqiqot ishida ta'kidlaganidek "O'z-o'zini takomillashtirish - bu o'qituvchining kasbiy umrini uzaytirish va uning raqobatbardoshligini oshirishning yagona yo'lidir" [8] Bugungi kunda ilm-fan tez rivojlanmoqda. O'qituvchi 10 yil oldingi bilim bilan bugungi talabalarga dars bersa, bu deontologik nuqtai nazardan xato. Chunki u talabalarni zamonaviy talablarga mos ravishda tayyorlay olmaydi. Shuning uchun, o'z ustida ishlash shunchaki istak emas, balki kasbiy burch hisoblanadi.

Kollegiallik va hamkorlik- pedagogik jarayon yagona shaxsning mehnati emas, balki jamoa mehnatidir. Isakov M.ning tadqiqotlarida kollegiallik tamoyili pedagogik jamoada sog'lom muhit yaratishning asosi deb ko'rsatilgan. O'qituvchilar o'rtasidagi tortishuvlar, g'iybatlar ta'lim sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Isakov M. "Pedagogik jamoada professional hamkorlik madaniyati" monografiyasida yozadi: "Kollegiallik- bu nafaqat hamkasblar bilan yaxshi munosabat, balki umumiy maqsad - talabani tarbiyalash uchun birgalikda harakat qilishdir" [9] Afsuski, amaliyotda ba'zi o'qituvchilar o'rtasida raqobat ustuvor bo'lmoqda. Lekin deontologiya nuqtai nazaridan, asosiy raqobat boshqa o'qituvchi bilan emas, balki o'z kamchiliklaringiz bilan bo'lishi kerak. Kollegiallik yangi tajriba o'rganish va yosh mutaxassislar ustozlik qilishning eng yaxshi shaklidir.

Ijtimoiy mas'uliyat -o'qituvchining jamiyat oldidagi mas'uliyati uning dars berish doirasidan ancha keng. U yosh avlodni vatanparvarlik, insonparvarlik va fuqarolik ruhida tarbiyalash orqali davlatning kelajagini belgilaydi. K.Karimov "O'qituvchi darsda berayotgan bilimi bilan birga, o'z xulqi va dunyoqarashi bilan ham jamiyatga xizmat qiladi"[10].deya takidlaydi. Jamiyatdagi har qanday ijobiy yoki salbiy hodisalarning ildizi ko'pincha ta'lim-tarbiyadan borib taqaladi. Shuning uchun ham o'qituvchi o'z harakatlarining ijtimoiy oqibatlarini his qilishi lozim. Bu tamoyil o'qituvchini "oddiy ishchi" emas, balki "milliy ma'naviyat me'mori" darajasiga ko'taradi. Yuqorida sanab o'tilgan va turli olimlar tomonidan tahlil qilingan pedagogik deontologiyaning asosiy tamoyillarini quyidagi chizma orqali umumlashtirishimiz mumkin: (2- rasm)



Ushbu rasm pedagogik deontologiyaning ustuvor tamoyillarini va bu borada izlanish olib borgan olimlarning asosiy yondashuvlarini yaxlit tizimda namoyon etadi. Ko'rinib turibdiki, bu me'yorlar nafaqat o'qituvchining tashqi xatti-harakatlarini tartibga soladi, balki uning ichki qadriyatlariga ham aylanadi. Bu ichki qadriyatlar tizimi esa bevosita o'qituvchining kasbiy o'zligini, ya'ni uning identitetini belgilab beradi.

Xulosa.

Deontologik yondashuv tamoyillari (kasbiy burch, ma'suliyat, etika va qadriyatlarga sodiqlik) talabada "men o'qituvchiman" degan ichki ishonchni uyg'otuvchi asosiy poydevordir. Tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, talaba pedagogik burch va ma'suliyatni majburiyat emas, balki shaxsiy ehtiyoj sifatida qabul qilgandagina unda haqiqiy kasbiy identiklik shakllanadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, oliy pedagogik ta'lim tizimiga deontologik tamoyillarni tizimli joriy etish nafaqat bilimli mutaxassis, balki zamonaviy jamiyat uchun ma'naviy yetuk, kasbiga sadoqatli va ijtimoiy ma'suliyatli yangi avlod o'qituvchilarini tayyorlashning eng samarali pedagogik mexanizmidir.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Kant I. Kritika prakticheskogo razuma. – Moskva: Nauka, 1994. – 200-205 b
2. Haydarov F.A. Pedagogik deontologiya asoslari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 35-40 b.
3. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo razvitiya. – Moskva: Akademiya, 2009. – 115-120 b.
4. Сухомлинский, В.А. Воспитание человека / В.А. Сухомлинский. — М.: Педагогика, 1973. — 268 с.
5. Qosimova, Sabohat Samatovna. Pedagogik deontologiya asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. — 156 b.
6. Zimnyaya, Irina Aleksandrovna. Pedagogik psixologiya / Moskva: Logos, 2010. — 384 b.
7. D.Toshboyeva. Pedagogik etika va deontologiya: nazariya va amaliyot // Xalq ta'limi jurnali. — Toshkent, 2020. — №4. — B. 15-28.
8. N.Ismailova. Bo'lajak pedagog kasbiy identikigi: Deontologiya va Integratsiya kesimida. Science and technologies: global challenges and innovative solutions.Global International Conference.Tashkent, Astana.Mai 5, 2026. 682-690.
9. M.Isakov. Pedagogik jamoada professional hamkorlik madaniyati / Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2016. — 98 b.
10. K. Karimov. Milliy istiqlol g'oyasi va pedagogik mas'uliyat // Ta'lim va jamiyat. — Toshkent, 2019. — №2. — B.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**XII RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**  
2026-yil, 26-iyun

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
XII Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 12-son (iyun, 2026-yil). – 223 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 24-iyun.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.